Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 32

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

SHAXSIY YORDAMCHI XO‘JALIKLARNING AGROSANOAT KOMPLEKSIDAGI O‘RNI VA ULARGA DAVLAT SIYOSATI (O‘ZBEKISTON SSR, 1970–1980-YILLAR)

Islombek Soyibjon o‘g‘li Aslonov*

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

✉ aslonov.islombek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 70–80-yillarida sovet agrosanoat kompleksida shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga nisbatan davlat siyosatining o‘zgarishi va uning O‘zbekiston SSRdagi ko‘rinishi yoritilgan. 1950–1960-yillardagi cheklovlardan 1976–1982-yillarda yordamchi xo‘jaliklarning oziq-ovqat ta’minotidagi rolini tan olishgacha va 1989–1990-yillarda tomorqa yerlarini kengaytirishgacha bo‘lgan yo‘l partiya-hukumat qarorlari, statistik to‘plamlar va davr matbuoti asosida ko‘rsatilgan. Aniqlanishicha, 1980-yillarning boshida respublikada chorvachilik mahsulotlarining qariyb yarmi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirilgan, biroq ularning yer bilan ta’minlanishi cheklangan bo‘lib qolgan.

Kalit so‘zlar

shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar, tomorqa, agrosanoat kompleksi, Oziq-ovqat dasturi, O‘zbekiston SSR.

Kirish

Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar (tomorqa xo‘jaliklari) sovet qishloq xo‘jaligida bir vaqtning o‘zida ham cheklanadigan, ham aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashda tayanadigan bo‘g‘in bo‘lib keldi. Ularga munosabat XX asr davomida bir necha marta o‘zgardi. Maqolada 70–80-yillardagi o‘zgarish va uning O‘zbekiston SSRdagi natijalari ko‘rib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, “yordamchi xo‘jaliklar” deganda ikki xil xo‘jalik tushuniladi: fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari (tomorqa) hamda ministrlik, idora va korxonalar qoshidagi yordamchi xo‘jaliklar. Maqolada asosiy e’tibor birinchisiga qaratilgan.

Manba sifatida partiya va hukumat qarorlari, statistik to‘plamlar, “Sovet O‘zbekistoni” gazetasi va “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali ishlatildi. Chjuan Shisining (2019) dissertatsiyasidan ikkilamchi manba sifatida foydalanildi. Ma’lumotlar xronologik va qiyosiy usullar bilan tahlil qilindi.

1950–1960-yillar: cheklov siyosati

1953-yilda qabul qilingan SSSR qonuniga ko‘ra qishloq xo‘jalik solig‘i yordamchi xo‘jaliklarga ham har sotix yer uchun belgilangan stavkada qo‘llandi [1]. Shu yilning sentabrida kolxozchilar, ishchi va xizmatchilar xo‘jaliklari uchun majburiy yetkazib berish normalarini pasaytirishga qaratilgan qaror qabul qilindi [2, S. 60], 1957-yil 4-iyuldagi qaror bilan esa majburiy yetkazib berishlar bekor qilindi [3, S. 351]. Shu bilan birga partiya hujjatlarida yordamchi xo‘jaliklar ahamiyati kamayib boradigan hodisa sifatida talqin qilindi: 1958-yil dekabr plenumida sovxozlar hisobidan aholini go‘sht va sut bilan ta’minlash imkoniyati ortgani qayd etildi [4], 1961-yildagi partiya dasturida esa kolxozlar o‘sishi bilan yordamchi xo‘jaliklarga ehtiyoj kamayib borishi ko‘rsatildi [5].

Chjuan Shisining yozishicha, 1970-yillarning boshida shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarning daromad manbai sifatidagi o‘rni pasayib borgan: SSSR bo‘yicha 1966–1980-yillarda ularning ekin maydoni 6,6 mln gektardan 6,16 mln gektarga, yirik shoxli qoramollar soni 27,87 mln boshdan 23 mln boshga kamaygan, 1970–1980-yillarda shaxsiy yordamchi xo‘jaligi bor kolxozchilar ulushi 31,9 foizdan 25,3 foizga tushgan [6, S. 143]. Qishloq do‘konlarida go‘sht, tuxum, sut va sut mahsulotlari yetishmagani uchun qishloq oilalari (SSSR misolida) bularni asosan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari orqali olgan [6, S. 143].

1976–1982-yillar: yondashuvning o‘zgarishi

1976-yilgi KPSS XXV syezdida sotsialistik qishloq xo‘jaligining asosi kolxoz va sovxozlar bo‘lishi bilan birga shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarning salohiyatini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmasligi, ular go‘sht, sut va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga hissa qo‘shishi mumkinligi ta’kidlandi [7, S. 329]. 1981-yildagi XXVI syezdda yordamchi xo‘jaliklar oziq-ovqat resurslarini to‘ldirishning muhim manbai deb ta’riflandi [6, S. 168], 1982-yil may plenumi va Oziq-ovqat dasturida esa bu xo‘jaliklar imkoniyatlaridan keng foydalanish va ularga ko‘maklashish vazifasi belgilandi [8]. Maqola muallifining fikricha, bu yordamchi xo‘jaliklarga munosabat o‘zgarganini ko‘rsatadi: ular ijtimoiy ishlab chiqarishga qo‘shimcha sifatida emas, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash zaxiralaridan biri sifatida qaralay boshlandi.

O‘zbekistondagi holat

1983-yilda nashr etilgan statistik to‘plamga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda dehqonchilik mahsulotlarining 12 foizi, chorvachilik mahsulotlarining 48,3 foizi ishlab chiqarilgan [9, S. 77]. 1984-yilda chop etilgan to‘plamda 1983-yilda respublika yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 22,6 foizi, jumladan dehqonchilik bo‘yicha 11,6 foizi, chorvachilik bo‘yicha qariyb yarmi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirilgani ko‘rsatilgan [10, S. 153]. 1985-yil ma’lumotlariga ko‘ra, respublikadagi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda go‘shtning 50, sutning 66, tuxumning 39, kartoshkaning 35 foizi yetishtirilgan [11, B. 10].

Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar bilan bir qatorda idoraviy yordamchi xo‘jaliklar ham mavjud edi. 1985-yil 1-yanvarda respublika ministrlik va idoralarining 30,1 ming gektar maydonni egallagan 1 757 ta yordamchi xo‘jaligi bo‘lib, ular 39,4 ming bosh qoramol, 94,4 ming cho‘chqa, 92,3 ming qo‘y va echki, 307,6 ming parrandaga ega bo‘lgan; 1984-yilda bu xo‘jaliklar 9 ming tonnadan ziyod go‘sht, qariyb 10 ming tonna sut va 6 mln donaga yaqin tuxum yetishtirgan [12, B. 8].

1988–1990-yillar: tomorqa yerlarining kengayishi

1988-yil 10-martda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti SSSRning 1987-yil 19-sentabrdagi qarori asosida qaror qabul qildi: unda chorva va parrandalarni saqlashning chegara normalarini hamda tomorqa uchastkalari hajmini belgilash amaliyotidan voz kechilib, tomorqa yerlari qishloqda yashovchilarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga qarab belgilandi [13, B. 4–5]. 1989-yil 1-iyulgacha respublikada 922 ta xo‘jalik ijara pudratini qo‘llagan, ularning 175 tasi barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida to‘liq pudratga o‘tgan [14]. Shu bilan birga 1989-yilda O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jalik davlat kooperativ komiteti kollegiyasida yordamchi xo‘jaliklarni rivojlantirish darajasi SSSR bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha orqada qolgani, ayrim xo‘jaliklarda pudratga yer berilmagani yoki hisobotlarda yerlarning 80–90 foizi pudratga o‘tgan deb ko‘rsatilganining haqiqatga to‘g‘ri kelmagani qayd etilgan [15, B. 2].

1989-yil 17-avgustdagi qarorda kolxoz va sovxozlarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar uchun yer ajratishi, ajratiladigan maydon esa 0,25 gektardan oshmasligi belgilandi [16]. Qaror qabul qilingandan keyingi bir oy ichida 60 mingdan ziyod oilaga yer berildi, respublikadagi tomorqalar jami 200 ming gektarni, ya’ni ekin maydonlarining 5 foizini tashkil etdi [17]. Toshkent viloyatida 1989-yilda 240 ming tomorqa 19 ming gektar yerga egalik qildi, ya’ni har bir xonadonga o‘rtacha 8 sotixdan to‘g‘ri keldi; ular 1988-yilda viloyatda yetishtirilgan go‘shtning uchdan bir qismini va sutning 46 foizini bergan, shu bilan birga yer uchastkasi uchun navbatda turganlar 27 ming kishini tashkil etgan [18]. 1990-yil 1-noyabrga kelib yer ajratish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Qishloqda tomorqa yerlari ajratish natijalari (1990-yil 1-noyabr holatiga)

№	Ko‘rsatkich	Miqdori
1	Qishloqda yashovchi oilalar	2 220 129

2	Yangi tomorqa olishga yoki mavjudini kengaytirishga muhtoj oilalar	1 327 149
3	Yangi uchastka olgan oilalar	394 098
4	Ularga ajratilgan yer, gektar	55 036
5	Uchastkasini kengaytirishga muhtoj oilalarga qo‘shimcha ajratilgan yer, gektar	101 117
6	Qishloq mehnatkashlarining davlatdan olgan yeri jami, gektar	156 153
7	Yangi tashkil topgan oilalarga ajratilgan uchastka soni / maydon (gektar)	87 515 / 11 009
8	1990-yilda mahsulot sotib olish uchun tuzilgan shartnomalar	765 862

Manba: [19, B. 27].

Jadvaldan ko‘rinadiki, yer ajratish keng ko‘lamda olib borilgan: yangi uchastka olganlarga ajratilgan 55 036 gektar va kengaytirishni xohlaganlarga berilgan 101 117 gektar jami 156 153 gektarni tashkil etgan. Maqola muallifining fikricha, uchastkalarning yiriklashishi dehqonlarga oila ehtiyojidan ortgan mahsulotni bozorga chiqarish imkonini berdi va mayda tovar ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yila boshlanishiga olib keldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 50–60-yillarida davlat siyosati yordamchi xo‘jaliklarni cheklash tomon yo‘naldi, 1976–1982-yillarda esa ular oziq-ovqat ta’minotining muhim manbai sifatida tan olindi. O‘zbekistonda 1980-yillarning boshida chorvachilik mahsulotlarining qariyb yarmi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirildi. 1989–1990-yillarda tomorqa yerlari kengaytirildi, biroq yerga navbat (Toshkent viloyatida 27 ming kishi) va hisobotlardagi haqiqatga mos kelmaydigan ko‘rsatkichlar bu jarayonning cheklangan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. О сельскохозяйственном налоге: Закон СССР, утверждённый Верховным Советом СССР 8 августа 1953 года // Правда. – 1953. – 10 августа.

2. Постановление Совета Министров СССР и ЦК КПСС от 21 сентября 1953 года «О мерах по дальнейшему развитию животноводства в стране и снижении норм обязательных поставок продуктов животноводства государству хозяйствами колхозников, рабочих и служащих» // Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т. 4 / сост. Черненко К.У., Смиртюков М.С. – М.: Политиздат, 1968. – С. 60.

3. Постановление ЦК КПСС и Совета Министров СССР от 4 июля 1957 года «Об отмене обязательных поставок сельскохозяйственных продуктов государству хозяйствами колхозников, рабочих и служащих» // Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т. 4 / сост. Черненко К.У., Смиртюков М.С. – М.: Политиздат, 1968. – С. 351.

4. Итоги развития сельского хозяйства за последние пять лет и задачи дальнейшего увеличения производства сельскохозяйственных продуктов: постановление Пленума ЦК КПСС по докладу товарища Н.С.Хрущёва, принятое 19 декабря 1958 года // Правда. – 1958. – 20 декабря.

5. Программа Коммунистической партии Советского Союза (принята XXII съездом КПСС 31 октября 1961 года) // Правда. – 1961. – 2 ноября.

6. Чжуан Шици. Аграрная политика и развитие сельского хозяйства СССР в середине 1960-х – середине 1980-х гг.: дисс. ... канд. ист. наук. – Москва, 2019. – С. 143, 168.

7. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 13. 1976–1980. – М.: Изд-во политической литературы, 1987. – С. 329.

8. Продовольственная программа СССР на период до 1990 года (одобрена Пленумом ЦК КПСС 24 мая 1982 года) // Правда. – 1982. – 27 мая.

9. Народное хозяйство Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – С. 77.

10. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 153.

11. Samaradorlik bilan xo‘jalik yuritaylik // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 1989. – №11. – B. 10.

12. Qishloq yordamchi xo‘jaliklari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish – umumiy ishimiz // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 1986. – №2. – B. 8.

13. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami. – 1988. – №2. – B. 4–5.

14. Ijara munosabatlari qanday rivojlanayapdi? // Sovet O‘zbekistoni. – 1989-yil 5-avgust.

15. Qishloq xo‘jaligini qayta qurish: qarorlar ortidagi muammolar // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 1989. – №9. – B. 2.

16. Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari, grajdanlarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to‘g‘risida // Sovet O‘zbekistoni. – 1989-yil 17-avgust.

17. Yangilanish nishonalari // Sovet O‘zbekistoni. – 1989-yil 27-sentabr.

18. Qishloq mehnatkashi uchun uy va yer // Sovet O‘zbekistoni. – 1989-yil 12-avgust.
19. Rahimov B. Tomorqaning qudrati // Hayot va iqtisod. – Toshkent, 1991. – №10. – B. 27.